

SHARQ MASH'ALI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

3
2024

*Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rify jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yildan chiga boshlagan
Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot
boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)*

Bosh muharrir:

G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:

D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinnbosari)

X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)

A. MANNONOV (prof., f.f.d.)

Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)

R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)

SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)

Q. OMONOV (prof., f.f.d.)

U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)

D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)

X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)

B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)

A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)

M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)

X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)

D. XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD)

SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)

N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)

A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)

R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)

L. MAVLANOV (prof., i.f.d.)

R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)

E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)

A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya univ. prof.)

G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.)

ONO MASAKI (Yaponianing Tsukuba univ. prof.)

LI DJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar univ. prof.)

V. MESAMED (Isroiuning Quddus univ. prof.)

A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.)

A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)

G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.)

A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)

S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)

H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 3, 2024-yil

| | |
|------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>Adabiyotshunoslik</p> <p>Tilshunoslik</p> | <p>Ходжаева Р. Коранические образы и мотивы в макамах великого мыслителя из Хорезма Махмуда аз-Замахшари 3</p> <p>Aхмедова Ш. Образ песчаного корабля пустыни - верблюда в рассказах Сулеймана Аш-Шати 10</p> <p>Gafurova X. Yaponiyada zamonaviy fanda uta-monogatari adabiy janrini o'rganish 15</p> <p>Qoraboyev S. Pashtu adabiyotida tarixiy roman va uning janri masalasi 23</p> <p>Qosimova G. Yomixon janri rivojida Ueda Akinari merosi 30</p> <p>Qalandarov M., Xushnazarova G. Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy "Lub ul bob-masnnaviy" hamda Odina Eshonning "Miftoh ul-asror" asarlarining ilmg'a oid qisimlarining tahlili 41</p> <p>Jabborov Sh. Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida "tabaqa" va uning o'ziga xos xususiyatlari 48</p> <p>Abduvaliyeva O'. Pashtu tilidagi kopulyativ frazeologik birliklar 55</p> <p>Muxammadjonov A. Abu Hilol al-Askariyning الفرق اللغوية "Al-Furūq al-lughawiyah" asarining struktur va semantik tahlili 62</p> <p>Saidov U. Konsept: tushunchasi, tarixi va masalaning diachronik qo'yilishi 69</p> <p>Baylarova L. Methodology based on the cultural model of linguistic and cultural texts in teaching German. (second year language University) 76</p> <p>Giyazova B. Ma'budalar - Sarasvati, Lakshmi va durga bilan bog'liq atamalarining sinonimik (jihatdan) tahlili 86</p> <p>Rasulova K. "Navoiy" romani turkcha tarjimalarida frazeologizmlarning berilishi 95</p> |
|------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

 *SHARQ MASJALI*

| | | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>Nashrga tayyorlovchilar: J. ISMOILOV, A. ZIYODOV L. HAMDAMZODA, H. SULAYMONOVA</p> <p>Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.</p> <p>Jurnal original-maket asos'ida bosildi. Sharq mash'ali, 2024 yil 3-soni. e-mail: nashriyot@tsuos.uz web-site: www.tsuos.uz Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</p> | <p>Tarix</p> <p>Tashqi siyosat</p> | <p>Madraimov A., Madraimov A. Tarixchi G'iyosiddin Xondamirning Boburshunoslikka qo'shgan katta hissasi 105 Abdullayev U. Amir Temur va Yildirim Boyazid o'rtaqidagi muhoraba avvalida Yaqin Sharqdagi xalqaro vaziyat 115 To'rayev L., Qosimi H. "Boburning tojikiston o'lklalaridan xotiralari, bu zaminda qoldirgan yodgor izlari" 123 Karimov N. "Navodir al-usul" asarida islom psixologiyasining yoritilishi 132 Hasan N. Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar tarixida tutgan o'rni haqida 139 Mirzoraximov A. Kitobat va uning rivojlanish bosqichlari 146 Alizade O. Tamgalarla Türk Rakamlarının Oluşturulması 153</p> <p>Sadibaqosev H. Markaziy osiyo davlatlarining xavfsizlik borasida AQSH va xitoy bilan hamkorligi 164 Rizayev A. Saudiya Arabistonining xalqaro- siyosiy identikligi 172 Аллахвердиева Л. Развитие магистерского образования в Азербайджане в процессе интеграции в европейское высшее образовательное пространство 180</p> |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

SHARQ MASHLALI

Pashtu tilidagi tarixiy romanlar o‘zining afg‘on tarixidagi ayrim hodisalarni badiiy talqin qilishi orqali tarixiy roman tizimiga o‘ziga xos yo‘nalish sifatida kirdi. Pashtunlar hayotidagi tarixiy jarayonlar pashtu romanı semantikasining kengayishiga olib keldi. Pashtunlar hayotida bo‘lib o‘tgan voqeahodisalar, rivojlanish va taraqqiyot bosqichlari, janglar va shu kabi muhim jarayonlarni roman janrining imkoniyatlari orqali ifodalash qulay ekanligini sezgan pashtun adiblari tarixiy romanning pashtu tilidagi noyob durdonalarini yaratdilar.



YOMIXON JANRI RIVOJIDA UEDA AKINARI MEROSSI

QOSIMOVA GULNORA
O‘qituvchi, PhD, TDSHU

Annotatsiya: Mazkur maqolada XVIII asr yapon shahar adabiyotining yorqin namoyandası – Ueda Akinari ijodi va uning yomixon janri rivojidagi roli to‘g‘risida so‘z boradi. Bunda adib hayot yo‘li bilan bog‘liq biografik ma‘lumotlarga urg‘u beriladi. Maqolada dastlab gesaku nasriy adabiyotining tavsifi keltirilib, uning janrlaridan biri bo‘lgan “yomixon” janrining o‘ziga xos badiiy xususiyatlari ochib beriladi. So‘ng, yapon shahar adabiyoti va yomixon janrining taraqqiyoti kontekstida adib ijodining kasb etgan ahamiyati masalasi yoritiladi. Shuningdek, maqolada Akinari ijodiy merosida muhim o‘rin egallagan dudona asar – “Oy va yomg‘ir haqida qissalar” nomli hikoyalari to‘plami o‘rganilib, undan joy olgan har bir hikoya yomixon janrining o‘ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Mazkur asar orqali yapon milliy ta‘limoti – “kokugaku” harakatining vakili sifatida faoliyat olib borgan Akinari mumtoz yapon hamda xitoy manbalaridan o‘z ijodida qanday foydalanganligi masalasi ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Tokugava davri, shahar adabiyoti, gesaku, yomixon, “Oy va yomg‘ir haqida qissalar” to‘plami

Аннотация: В данной статье речь идёт о творчестве Уэда Акинари, яркого представителя японской городской литературы XVIII века, и его роли в развитии жанра ёмикон. В раскрытие данного вопроса особый акцент сделан на биографических сведениях, связанных с жизненным путем писателя. В начале статьи даётся характеристика прозаической литературы гэсаку, раскрываются уникальные художественные особенности одного из ее жанров - жанра ёмикон. Затем в контексте развития японской городской литературы и жанра ёмикон будет освещен вопрос о значении литературных произведений писателя. Также в статье рассматривается сборник рассказов под названием «Повести о луне и дожде», занимающий важное место в творческом наследии Акинари, и анализируется каждый его рассказ с точки зрения своеобразия жанра ёмикон. Посредством данного сборника также освещается вопрос о том, как Акинари, работавший представителем японской национальной доктрины – движения «кокугаку», использовал в своем творчестве классические японские и китайские источники.

Ключевые слова: период Токугава, городская литература, гэсаку, ёмикон, сборник «Повести о луне и дожде».

Abstract: The article deals with the work of Ueda Akinari, a bright representative of Japanese townsman’s literature of the 18th century, and his role in the development of the yomihon genre. The article focuses on the biographical information related to the writer’s life. The article begins with a

characterisation of gesaku prose literature and reveals the unique artistic features of one of its genres, the yomihon genre. Then, in the context of the development of Japanese townsman's literature and the yomihon genre, the question of the significance of the writer's literary works will be highlighted. The paper also examines a collection of short stories entitled "Tales of the Moon and Rain", which occupies an important place in Akinari's creative legacy, and analyses each of his stories in terms of the distinctiveness of the yomihon genre. Through this collection, the question of how Akinari, working as representative of kokugaku movement, utilised classical Japanese and Chinese sources in his work is also highlighted.

Keywords: Tokugawa period, townsman's literature, gesaku, yomihon, collection 'Tales of the Moon and Rain'.

KIRISH. Kunchiqar mamlakat tarixining sahifalarida Tokugava yoki Edo davri (1603-1868) nomi ostida saqlanib qolgan davrda adabiyot shaharlarda istiqomat qiluvchi jamiyat orasida ommalashib, asta-sekin o'zining elitarlik xususiyatini yo'qotdi. So'z san'ati mazkur davrda zodagon qatlam emas, balki savodxon sobiq samuraylar va shaharlik uchinchi qatlam vakillari tomonidan yaratildi hamda rivojlantirildi. "Chyonin bungaku" (tarj. "shaharliklar adabiyoti") atamasi bilan yuritiladigan mazkur davr adabiyoti janr nuqtai nazaridan rang-barangligi, bir qator iste'dodli ijodkorlarni yetishtirib bergenligi bilan yapon adabiyoti tarixida alohida o'ringa ega.

XVIII asr ikkinchi yarmi va XIX asr o'rtalarida asosan jonli xalq, so'zlashuv tilida yaratilgan nasriy asarlar – "gesaku" (tarj. "xajviy, yengil, jiddiy bo'lman adabiyot") nomi ostida mavjud bo'lib, yangi kitobxonlar auditoriyasining ko'nglidan chuqur o'rinnegalladi. Tarkib nuqtai nazaridan xilma-xil "gesaku" o'zida "shyarebon", "kibyoshi", "kokkeibon", "ninjyobon", "yomixon", "gokan" kabi turli janlarini mujassamlashtiradi.

Ushbu janrlar orasida "yomixon" (tarj. "mutolaaga mo'ljallangan kitoblar") gesaku adabiyotining eng jiddiy janrlaridan sanaladi. Mazkur atama asosiy urg'u qissaning bayoniga berilgan asarlarni bunday bo'lman asarlardan¹ ajratish uchun qo'llanilgan. Bu turdag'i kitoblar bir qator yengil asarlar qatorida gesaku turkumiga kiritilgan bo'lishiga qaramay, yorqin namoyon bo'lgan didaktizmi bilan yengiltabiat xarakterdagi shyarebon² va kibyoshi³ kabilardan keskin farq qilib turgan.

¹ Bu yerda yomixon bilan bir vaqtda mavjud bo'lgan "exon" ("rasmli kitoblar") janri nazarda tutilmoxda. Yomixonlardan farqli ravishda exon janrida asarning qiymati asosan undagi badiiy matn bilan emas, balki unga ishlangan rasmlar bilan belgilangan.

² "Shyarebon" (tarj. "kulgili kitoblar") 1745-1830-yillar davomida yaratilgan va shaharliklarning sevimli mavzularidan biri bo'lgan "quvnoq ko'chalidagi hayot" haqida hikoya qiluvchi asarlarning umumiy nomi hisoblanadi. Ilk shyarebon namunalari Kamigata hududida yuzaga kelgan bo'lib, 「金瓶梅」 ("Oltin guldondagi olxo'ri gullari", XVI) kabi xitoycha asarlarning qolipi asosida yaratilgan. Ushbu davr adabiyotida muhim o'rinnegallagan xazil-mutoyiba, kulgu ayniqsa mazkur janrdan boshlab to'liq namoyon bo'la boshlagan edi. Shyarebon namunalarida faoliyat hokimiyat tomonidan rasmiy ruhsat etilgan "quvnoq ko'chalar" va ularning doimiy mijozlari (aksariyat hollarda boyib ketgan shaharlik erkak) tasvirlanib, ushbu joylarning o'ziga xos qonun-qoidalari va "odobaxloq me'yorlari"ni buzganlar kulgu ostiga olinadi.

³ XVIII asrning 60-yillardan shaharliklar orasida shyarebon bilan bir qatorda mazmuni va shaklidan emas, aynan muqovasining rangidan kelib chiqqan holda "kibyoshi" (tarj. "sariq muqovali kitoblar"), "aaxon" (tarj. "havo rang muqovali kitoblar") kabi nomli janrlarga ajratilgan asarlar shuhrat qozondi. Kibyoshi namunalari aksariyat hollarda shyarebon mualliflari tomonidan yaratilgan bo'lsa-da, ularning har ikkisi bir-biridan farqlashuvchi janr sifatida qoror topdi. Mazkur janr o'zida rangli rasm, ya'ni illyustrasiyalar bilan to'ldirilgan, xajviy xarakterdagi rasmiy kitoblarni mujassamlashtirgan. Kitob sahifalarini bezovchi rassom rolini ko'p hollarda muallifning o'zi bajargan bo'lib, ushbu rasmlar asarning shuhratga erishishida badiiy matn bilan bir darajada muhim ahamiyat kasb etgan. Aksariyat kibyoshilar shyarebon kabi "quvnoq ko'chalar" hayoti, urf-odatlari kabi mavzularga bag'ishlangan bo'lsa-da, ularning

SHARQ MASHLALI

Yomixon o‘zida yapon qahramonlik eposlari, ruhlar va boshqa g‘aroyibotlar to‘g‘risidagi hikoyalar to‘plamlarining an‘analarini, shuningdek, so‘zlashuv tilida yaratilgan XIV asr xitoy adabiyotning durdona asarlari – 「三国演义」 (“Uch qirolik”), 「水浒传」 (“Daryo qo‘ltig‘lari”) romanlarining bir qator jihatlarini mujassamlashtirganligi bilan xarakterlanadi.

Ieroglis va xitoycha o‘zlashma so‘zlar – “kango”lardan foydalanilgan holda nisbatan adabiy tilda yozilgan yomixon namunalari xitoy va yapon tarixiy manbalardan keltirilgan parchalar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, muallif ushbu parchalarning har biridan muayyan bir o‘gitni olishni va tegishli xulosa chiqarishni o‘zining burchi deb bilgan. Yomixon janr nuqtai nazaridan ko‘proq qahramonlik romanlariga to‘g‘ri kelib, sulolasining shon-shuxrati, kuch-qudratini tiklashga intilayotgan o‘rta asr afsonaviy jangchilarining qahramonliklari va sarguzashtlari mazkur turdag'i asarlarning asosiy mavzusi bo‘lib xizmat qilgan.

Aksariyat yomixon namunalarining syujet chizig‘iga nazar tashlansa, hikoya qilinayotgan voqealar harbiy feodalliklar o‘rtasidagi tinimsiz ichki urushlar pallasi, ya’ni Muromachi davri(1338-1573)ga tegishli bo‘lib, mualliflar ayniqsa konfutsiylikdagi odob-axloq tamoyillarining amaldagi yorqin namunasi sifatida keltirish mumkin bo‘lgan samuraylik ideallarining madhi ekanligini kuzatish mumkin.

Yomixon mualliflari o‘zlarini shunchaki yozuvchi emas, balki konfutsiylik an‘analariga monand holda ijodlari bilan yaxshilikni uyg‘otishga, yomonliklardan ogoh etishga bel bog‘lagan tarbiyachi deb hisoblaganlar. Mazkur holat yomixon janridagi inson obrazini yaratish tamoyillarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bois, asarlarda muallif uchun qahramonlarning ramziy va axloqiy qimmati masalasi, ularning muayyan bir xarakter sifatida qay darajada hayotiy aniqlikda real aks ettirilganligi masalasidanda muhim bo‘lgan¹.

Yomixon janrida faoliyat olib borgan eng iste’dodli adiblar haqida so‘z borganda, 「雨月物語」 (“Oy va yomg‘ir haqida qissalar”, 1776) va 「春雨物語」 (“Bahorgi yomg‘ir haqida qissalar”, 1950) nomli hikoyalar to‘plamlarining muallifi Ueda Akinari (1734-1809) hamda 「椿説弓張月」 (“Kamayayotgan oy haqida ajoyib qissa”, 1806-1811) va 「南総里見八犬伝」 (“Satomilik sakkiz it qissasi”, 1814-1841) kabi romanlari bilan katta shuhrat qozongan Takizava Bakin(1767-1848)larning nomlarini birinchilar qatorida zikr etish joiz. Aynan ushbu yozuvchilar ijodi natijasida yomixon kechki o‘rta asrlarning muhim adabiy janriga aylangan edi.

Ueda Senjiro 1734 yilda Yaponiyaning o‘sha paytdagi savdo markazi hisoblangan Osaka shahrida tavallud topgan. Adabiyot olamida Akinari ismi bilan ma’lum bo‘lsa-da, u aslida adibning 1770-yillarning boshlaridan qo‘llanila boshlagan taxallusidir. Ueda Akinarining onasi – Matsuo Osaki savdogar bo‘lish maqsadida Yamato provinsiyasidan Osakaga kelgan dehqonning nabirasi edi. Otasining kim ekanligi Akinari ijodini o‘rgangan tadqiqotchilar uchun hozirgi kunga qadar noma’lumligicha qolmoqda. Bo‘lajak adib to‘rt yoshligida Ueda Mosuke ismli tijorat ishlarida muvaffaqiyatga erishgan savdogar tomonidan asrab olinadi. Kichkina Akinari bir nechta barmoqlarining qiyshayib qolishiga sabab bo‘lgan og ir chechak xurujidan omon qolganidan so‘ng, bolaligini farovonlikda osoyishta o‘tkazadi. Ueda Akinari savdogarlarning farzandlariga

orasida xitoy va yapon mumtoz asarlariga parodiya sifatida yaratilgan, qadimgi afsonaviy va tarixiy qahramonlarni kulgi ostiga oluvchi namunalari ham ko‘philikni tashkil etgan.

¹ Кин Д. Японская литература XVII-XIX столетий. Наука. Москва. 1978. – С. 298.

konfutsiylik ta'limotidan saboq beradigan eng nufuzli maktablardan biri – Kaitokudoda sifatli ta'lim olishga muvaffaq bo‘ladi¹.

1753-1755 yillarda turli to‘plamning tarkibida nashr ettirilgan bir nechta haikai² she’rlari Akinarining hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan eng qadimgi asarlari hisoblanadi. Akinari mazkur janrni jiddiy qabul qilmagan bo‘lsa-da, butun ijodi davomida haikai yozishni davom ettirdi. Ushbu izlanishlar uni Osaka va Kiotoning muhim adabiyot namoyandalari, shu jumladan, haikai shoiri va rassom Yosa Buson (1716-1783) hamda qadimgi yapon adabiyotini filologik o‘rganishga urg‘u bergen bir qator kokugaku (milliy ta’limot harakati) tarafдорлари bilan o‘zaro yaqin aloqalar o‘rnatishga imkon yaratdi.

Akinari tarjmai holi bilan bog‘liq tadqiqotlardan ayon bo‘lishicha, adib hech qachon yozuvchilik bilan tirikchilik qilmagan. Tutingan otasi oilaviy tijorat ishi va oila a’zolari haqida qayg‘urish mas’uliyatini Akinariga yuklab, 1761 yilda vafot etdi. 1771 yilda sodir bo‘lgan yong‘in sabab tadbirkorlik ishi tanazzulga uchrab, tez orada bor mol-mulkini yo‘qotganidan so‘ng, Akinari o‘z e’tiborini tibbiyat ilmini o‘rganishga qaratdi. 1787 yilgacha asosan Osakada shifokor bo‘lib ishladi. Biroq, muvafaqqiyatsizlik uni chetlab o‘tmadi va 1788 yilda noto‘g‘ri tashxis qo‘yishi natijasida uning bemori vafot etdi³. Hayotidagi og‘ir zarbalardan biri bo‘lgan mazkur voqeadan so‘ng, Akinari tibbiy amaliyotiga yakun yasadi. Tibbiyotdan nafaqaga chiqqanidan keyin, ilmfanga murojaat qilgan Akinari o‘qituvchilik hamda yozuvchilik bilan shug‘ullandi.

Do‘ssti Buson va sobiq ustozи Takebe Ayatari (1719-1774) bilan bir qatorda Akinari ham XVIII asrning “bunjin”, ya’ni zodagonlar qatlamiga mansub bo‘lmasa-da, o‘zini yuksak madaniyatga bag‘ishlagan, tijorat yoki siyosiy sohalardagi manfaatlardan chetda turgan hamda zamонавија jamiyatning “qo‘polligi”ga nafrat bilan qaragan mustaqil ijodkor, yozuvchi, rassomlarning klassik namoyandalaridan bo‘lgan. Edo davrining o‘rtalarida bunjinlarga xos umumiy jihat – “zoku”, ya’ni “qo‘pollik”dan qochish va “qo‘pollik” erisha olmaydigan cho‘qqilarga yetish istagi hisoblangan. Bunjin ideali qisman oldingi davrlardagi xitoylik ven-chjen⁴lardan ilhomlangan bo‘lib, bunjinlarning XVIII asrdagi qo‘pollikdan qochishining bir usuli xitoy madaniyatini, shu jumladan xitoy xalqining badiiy adabiyotini o‘rganish hisoblangan. Bu jihat Akinari uchun ham xos edi. Biroq, Akinarining ilk badiiy asarlari xitoy adabiyot na’munalaridan ancha yiroq, asosan ukiyozoshi⁵ nasriy yo‘nalishining an‘analari bilan uzviy bog‘liq. Akinari ukiyozoshi yo‘nalishida ikkita – 「諸道聴耳世間狙」 (“Barcha narslarni eshitadigan zamонавија dunyoning maymunlari”, 1766) va 「世間妾形氣」 (“Zamonaviy kundoshlarning xulq-atvori, 1767) nomli hikoyalar to‘plamini nashr ettirgan bo‘lib⁶, ular ukiyozoshining so‘nggi muhim namunalari sanaladi.

¹ U.Akinari., A.H.Chambers (Translator). Tales of Moonlight and Rain. Columbia University Press New York. 2007. – P.4.

² Haikai (tarj.“xajviy she’rlar”) – 5-7-5 ketma-ketligida, 17 bo‘g‘indan tashkil topgan qofiyasiz xajviy uchlik. Tokugava davri she’riyatining asosiylari janri bo‘lgan haikai o‘zida yapon shaharliklarining estetik didi va kayfiyatini yaqqol aks ettirgan.

³ Кин Д. Японская литература XVII-XIX столетий. Наука. Москва. 1978. – С. 260.

⁴ Ven-chjen – bunjin bilan bir xil ierogliflar bilan yozilib, yozuvchi, ma’rifatparvar kabi ma’nolarni ifodalagan.

⁵ Ukiyozoshi (tarj. “beqaror dunyo to‘g‘risidagi kitoblar”) – 1682-1770-yillar mobaynida yaratilgan, asosan shaharliklarning rang-barang hayoti haqida hikoya qiluvchi, voqelikni aks ettirishning realistik metodiga asoslangan yapon nasriy adabiyoti. XVII asr yapon nasriy adabiyotida yuzaga kelgan realistik yo‘nalish.

⁶ U.Akinari., A.H.Chambers (Translator). Tales of Moonlight and Rain. Columbia University Press New York. 2007. – P.5.

Ushbu asarlar yaratilganidan so‘ng, Akinari tez orada e’tiborini boshqa soha va jabhalarga qarattdi. Ulardan biri milliy ta’limot edi. Akinari 1760 yildan oldinroq yapon mumtoz adabiyoti namunalari, ayniqsa vaka she’riyatini jiddiy o‘rganishni boshlab yuborgan edi. Bir necha yil o‘tgach, u Ayatari bilan, so‘ngra milliy merosni o‘rganish sohasida buyuk olim Kamo no Mabuchining (1697-1769) shogirdi Kato Umaki (1721-1777) bilan birga tahsil oldi. Bu esa uni ukiyozoshi an’anasidan voz kechib, 「伊勢物語」 (“Isedan qissalar”), yapon she’riyatidagi eng qadimgi she’riy to‘plam 「万葉集」 (“O‘ng ming barg to‘plami, 759) va imperator buyrug‘iga binoan tuzilgan ilk vaka to‘plami 「古今和歌集」 (“Qadimgi va zamonaviy she’rlarning to‘plami”, 905) kabi yapon mumtoz asarlariga o‘xshash, badiiyat nuqtai nazaridan ancha yetuk va jiddiyroq bo‘lgan badiiy adabiyotni yaratishiga olib keldi.

Akinarinig qadimgi yapon adabiyotini o‘rganishi qo‘pollikdan qochish va xitoy badiiy adabiyotiga bo‘lgan ishtiyoq bilan birlashish natijasida, uning durdona asari 「雨月物語」 (“Oy va yomg‘ir haqida qissalar”) hikoyalar to‘plami yuzaga keldi¹. Ueda Akinarinig ijodidagi eng mashhur ushbu asar ilk bora 1776-yilda Senshi Kijin² taxallusi ostida nashr ettirilgan va o‘zida 「白峯」 (“Shiramine tikkaligi”), 「菊花の約」 (“Xrizantema bayramidagi ont”), 「浅茅が宿」 (“Qamishzordagi uy”), 「夢応の鯉魚」 (“Tushda namoyon bo‘lgan zog‘orabaliq”), 「仏法僧」 (“Bupposo”), 「吉備津の釜」 (“Kibitsu ibodatxonasing qozoni”), 「蛇性の姪」 (“Ilonning buzuqligi”), 「青頭巾」 (“Ko‘k qalpoq”), 「貧福論」 (“Kambag‘allik va boylik to‘g‘risida mulohazalar”)³ deb nomlangan to‘qqizta g‘ayritabiiy hikoyalarni mujassamlashtirgan to‘plam hisoblanadi.

Ko‘p jihatdan yapon va xitoyning arvoхlar hamda ruhlar to‘g‘risidagi an’anaviy hikoyalarni yaponchaga moslashtirilishi natijasida yaratilgan mazkur to‘plam Tokugava davri “kaidan”, ya’ni “ruh va arvoхlar haqidagi adabiyot”ning eng muhim asarlaridan biri bo‘lib, yomixon janrining ilk namunasi hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, qahramonlarining aksariyati oddiy odamlar bo‘lishiga qaramay, ushbu to‘plamdagagi hikoyalarda Kiotoning saroy madaniyati bilan bog‘liq estetik ideal – “ga”, ya’ni “nafislik”ka intilish yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Bu asosan asarda aksariyat hollarda yapon va xitoy mumtoz adabiyot namunalariga havolalar qilinganligi, ulardan keltirilgan iqtiboslar bilan to‘ldirilganligida ayniqsa namoyon bo‘ladi. Asarni yozishda Ueda og‘zaki va mumtoz til ustida tajribalar o‘tkazib, badiiy matnga ko‘p ma’nolik va so‘z o‘yinini olib kirdi, furigana⁴ bilan mumtoz xitoy so‘zlarini iboralarini uyg‘unlashtirdi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, adibning mazkur to‘plami yapon va xitoy mumtoz asarlarining moslashtirilishi natijasida yaratilgan va shu bois, u “hon’an shosetsu”, ya’ni “yapon madaniyatiga moslashtirilgan asarlar” sirasiga ham kiradi⁵. To‘plam XVIII asr Yaponiyada katta shuhrat qozonib ulgurgan yangi janrdagi kitoblar, ya’ni yapon madaniyati va tarixiy sharoitlariga moslashtirilgan xitoy hikoyalari tarjimalarining bir namunasi edi. To‘plamdagagi hikoyalarni

¹ O‘sha manba. – B.6.

² Senshi (剪枝) “kesilgan barmoq” yoki “kesim”, Kijin esa (畸人) “nogiron” degan ma’noni anglatgan.

³ 上田秋成作; 長島弘明校注. 「雨月物語」 岩波書店, 2018. – 258 p.

⁴ Furigana (振り仮名) – kana alifbosida yozilib, ieroglifning o‘qilishini kana alifbosida berilishi bo‘lib, odatda ieroglifning ustki qismida keltiriladi.

⁵ D.Washburn. Ghostwriters and Literary Haunts. Subordinating Ethics to Art in Ugetsu Monogatari. Monumenta Nipponica. 45 (1). 1990. – pp.39-74.

Xitoyning turli hikoyalar to‘plamlaridan, jumladan 「剪燈新話」 (“Chiroq o‘chirilgandan keyingi yangi hikoyalar”, 1378) va 「喻世明言」 (“Dunyoni yorituvchi aniq so‘zlar”, 1624) kabilardan olingan. Ushbu hikoyalar allaqachon boshqa yozuvchilar tomonidan yaponchaga moslashtirilganligi sababli, Ueda nafaqat asliyatdan, balki mavjud yaponcha talqinlardan ham foydalanishga muvaffaq bo‘ldi¹. Adib davrida mavjud bo‘lgan tasavvurga binoan, san’atkor ijodiga “moslashtirish” an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan amaliyotni joriy qilgandagina yozuvchilik amaliyoti bilan shug‘ullanayotgan deb hisoblagan. Mazkur holat o‘sha davrda plagiат hodisasi sanalmagan. Shu bois, adibning ijodi mavjud manbalarga nisbatan yangicha nazar hamda yondashuvning namunasi sifatida yuksak maqtovlarga sazovar bo‘lgan.

Milliy ta’limot harakatining boshqa vakillari singari u ham badiiy adabiyotdan Yaponiya o‘tmishini qayta yaratish, qadimgi davr estetikasini o‘z davriga olib kirish vositasi sifatida foydalangan². Shu bilan birga, u “Oy va yomg‘ir haqida qissalar” to‘plamida “kokugaku”, ya’ni milliy ta’limot harakatining ayrim axloqiy qarashlarini namoyon etgan. Imperator Sutoku haqidagi afsonaning Ueda qalamiga mansub talqini sanalgan “Shiramine tikkaligi”³ hikoyasi bunga yorqin misoldir. Hikoyada voqealar shoир-rohib Saigyoning Matsuyamadagi ibodatxonada imperator Sutoku arvohiga duch kelib qolishi bilan boshlanadi. Imperator arvohi hayotligida uni taxtdan ag‘dargan bir qator qarindoshlarini yodga olib g‘azablanadi. Shunga qaramay rohib imperatorga nisbatan achinish hissini tuymaydi, uning hamfikriga aylanmaydi. Aksincha, yapon xalqning ajnabi yitoy ta’limoti ta’siri ostiga tushib qolishiga yo‘l qo‘yib bergani uchun uni tanqid qiladi. G‘azablangan imperatorning ulkan tengu⁴ qushiga aylanib, uchib ketishidan keyingi parchadan so‘ng, hikoyaning oxirida vafot etib, qasoskor ruhga aylangan Sutoku bilan bog‘liq turli tarixiy voqealar umumlashtirilgan holda bayon etiladi.

Syujet ko‘p jihatdan No teatridan olingan o‘zlashtirmalar asosida shakllantirilgan. Hikoya 「松山天狗」 (“Matsuyama tengulari”)⁵ pyesasidan ilhomlanib, asosan vafotidan keyin ham narigi dunyoga keta olmagan qahramonlarni gavdalantiradigan “mugen No” (“xayolot, tushlar Nosi”) pyesalarining tuzilishiga monand holda yaratilgan. Syujetdagи voqealar No teatrida mashhur bo‘lgan jo-ha-kyu⁶ qolipiga rioya qilingan holda rivojlantirilgan. Shuningdek hikoyada 「因果物語」 (“Karma haqida qissalar, 1661) va 「英草紙」 (“Gullar dastasi”, 1749) kabi asarlarning ta’siri ham sezilib turadi.

O‘zlashtirayotgan hikoyaning konfutsiy va buddaviylik ruhidagi mazmunini rad etgan holda, imperator Sutoku haqidagi afsonaning kokugaku yo‘sinda talqin qilar ekan, Ueda bosh

¹ O‘sha manba. – P.39-74.

² D. Keene. World Within Walls: Japanese Literature of the Pre-Modern Era, 1600-1867. New York: Columbia University Press. 1999. – P.94.

³ Shiramine - Matsuyama shahri joylashgan Shikoku orolidagi tog‘ning nomi.

⁴ Tengu – (so‘zma-so‘z tarj. “samoviy kuchuk”) – yapon rivoyatlarida uchraydigan afsonaviy mavjudot. Diniy ruhdagi yapon manbalarida tengu fantastik maxluqsimon mavjudot sifatida gavdalanoladi. Qizil yuzli, uzun burunli, ba’zan qanothi bahaybat odam qiyofasida paydo bo‘ladi. Tengu ko‘pincha tog‘ zohidining (yamabushi) kiyimlarini kiyib olgan holda tasvirlanib, juda katta kuchga ega bo‘ladi.

⁵ Matsuyama tengulari – arvohga aylangan sobiq imperator Sutoku va uning suhbatdoshi shoир Saygyo o‘rtasidagi uchrashuvni yorituvchi No spektakli.

⁶ Kompozitsion va ritmik qoida sanalgan jo-ha-kyu (jo – sekin kirish, ha – voqealar rivoji, harakatlar sur’atning oshishi, kyu – uning tez va shiddat bilan yakunlanishi) ilk marotaba “bugaku”, ya’ni raqs va musiqani uyg‘unlashtiruvchi teatrda paydo bo‘lgan. VII asr va undan so‘ng jo-ha-kyu Yaponiyadagi boshqa teatr shakllari uchun umumiy qoidaga aylandi.

qahramondan o‘z qarashlarini ifodalovchi obraz sifatida foydalanadi va imperator fojiasining sababini chet el, ayniqsa konfutsiy mafkularining kirib kelishi bilan bog‘laydi.

To‘plamda “Bupposo” deb nomlangan hikoya ham mavjud bo‘lib, “Shiramine tikkaligi” hikoyasidagidek, unda ham asosiy e’tibor she’riyat, tarix va adabiyot haqidagi munozaralarga qaratiladi. Hikoyada bir erkak o‘g‘li bilan Koya tog‘iga chiqib, tunab qolish uchun joy tayyorlayotganlarida qanday qilib Toyotomi Hidetsugu¹ va saroy ayonlarining arvoхlariga duch kelganligi haqida so‘z boradi. Erkak, arvoхlar ham u kabi she’riyat va qadimgi davr ilmlarini o‘rganishga ishtiyoqi kattaligini bilib, xursand bo‘ladi. Ular tunni ushbu masalalarni muhokam qilish bilan o‘tkazadilar.

Umuman olganda to‘plam nafaqat“Karma haqida qissalar, 1661, “Gullar dastasi”, balki 「御伽婢子」 (“Tumor qo‘g‘irchoq”, 1663), 「伊勢物語」 (“Isedan qissalar”, X asr), 「日本靈異記」 (“Yapon g‘aroyibotlari to‘g‘risida qaydlar”/ “G‘aroyibotlar to‘g‘risida yapon afsonalari”, VIII/IX asr) va 「今昔物語集」 (“Qadimgi qissalar to‘plami”, XII asr) kabi bir qator mashhur asarlarga tayangan holda, ulardan o‘zlashtirilgan obrazlar, kompozitsion qurilish, stilistik bitrikmalar va boshqalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Yapon adabiyotshunoslarining tadqiqotlariga binoan, asardagi oltmishdan ortiq parcha xitoy adabiyotidan, yuzdan ortig‘i esa yapon adabiyotidan o‘zlashtirilgan².

Yuqoridagi misoldan guvohi bo‘lganimizdek, adib mazkur to‘plamini yaratishda No teatridan ham ta’sirlangan. Har bir hikoyada qahramonlar No pyesalaridagi “shite” (bosh roldagi aktyor) va “vaki” (ikkinchi darajali aktyor) an’naviy rollariga monand holda yaratilgan va voqealar No teatridda mashhur bo‘lgan jo-ha-kyudramatik kompozitsiyasi yordamida shakllantirilgan. Shuningdek, mavzular ko‘lami bo‘yicha hikoyalar No teatrining bir kunlik repertuariga ko‘ra ilohlar, jangchilar, ayollar, aqldan ozgan odamlar (yoki turli xil zamonaviy pyesalar) va jinlar haqidagi pyesalar ketma-ketligida joylashtirilgan³. Aynan “Shiramine tikkaligi” va “Ilonning buzuqligi” kabilar xalq ertaklari hamda No pyesalaridan olingan o‘zlashtirmalarning asosida yaratilgan hikoyalar sanaladi.

Didaktik xarakterdagi “Ilonning buzuqligi” hikoyasida birinchi farzand bo‘lib tug‘ilmaganligi bois, qashshoqqa aylangan yengiltak farzandning go‘zal ayol qiyofasidagi oq ilonni sevib qolganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Bosh qahramonning xohish-istaklari va intizomsizligi timsoli bo‘lgan ilon hamisha unga muammolarni olib keladi. Iloning azob-uqubatlardan oilasini qutqarish niyatida, yigit uni tuvakka qamab qo‘yadi va Leifeng imorati⁴ning ostiga ko‘madi. Hikoya oq ilon haqidagi xitoy xalq afsonasidan va 「道成寺」 (“Dojoji”)⁵ nomli No pyesasidan ilhomlanish natijasida yuzaga kelgan asardir.

¹ Toyotomi Hidetsugu (1568-1595) – Yaponiyaning Sengoku davri(XVAsrning ikkinchi yarmi-XVII asrning boshi)dagi yirik harbiy feodali – daimyosi.

² Reider, Noriko T. The Emergence of Kaidan-shū The Collection of Tales of the Strange and Mysterious in the Edo Period". Asian Folklore Studies. 60 (1). 2001. – pp. 79-99.

³ D.Washburn. Ghostwriters and Literary Haunts. Subordinating Ethics to Art in Ugetsu Monogatari. Monumenta Nipponica. 45 (1). 1990. – pp.39-74.

⁴ Leifeng imorati – Xitoyning sakkiz burchakli besh qavatli baland minora bo‘lib, Xanchjoudagi G‘arbiy ko‘Ining janubida joylashgan tepalikda qad rostlagan. Dastlab milodiy 975 yilda qurilgan, 1924 yilda qulagan va 2002 yilda qayta tiklangan.

⁵ Dojoji – No yapon milliy teatrida muallifi noma'lum bo‘lgan pyesalardan biri. Yapon adabiyotida mazkur pyesa dramaturg Kan’ami tomonidan yaratilib, uning o‘g‘li – Zeami tomonidan tahrir qilingan degan tahmin hukum suradi. Voqealar Kii provinsiyasidagi Dojoji buddaviylik ibodatxonasida sodir bo‘luvchi mazkur pyesada qasoskor ruh ilon

SHARO MASH'ALI

Ta'kidlash joizki, "Oy va yomg'ir haqida qissalar" to'plami Yaponiyada Edo davrida mashhur bo'lgan "kaidanshyu", ya'ni "g'ayritabiiy mavjudotlar yoki ruhlar to'g'risidagi hikoyalar to'plam"laridan biridir. Unda "kaidan" – "g'ayritabiiy mavjudotlar yoki ruhlar to'g'risidagi hikoyalar"ning barcha uch asosiy turiga tegishli unsurlar – xitoycha hikoyalarning yaponchaga moslashtirilgan variantlari, arvoхlar to'g'risidagi buddaviylik hikoyalari va yapon xalq ertaklaridan foydalaniлgan. To'plam Uedaning g'ayritabiiy mavjudotlar yoki ruhlar to'g'risidagi nashr ettirilgan yagona asari hisoblanadi.

Edo davrida tinchlik va barqarorlik davridan bahramand bo‘layotgan Yaponiyada qishloq va shaharlarni o‘zaro bog‘lab turadigan iqtisodiyotning paydo bo‘lishi bilan adabiyotda ochiq diniy qarashlardan uzoqlashish, nasriy asarlarning didaktik xarakterini yo‘qotib “ko‘ngil ochish”ga qaratilgan asarlarga aylanib borishi kuzatildi. Bu davrda ko‘plab g‘ayritabiiy mavjudotlar yoki ruhlar to‘g‘risidagi xitoy hikoyalari tarjima qilinib, yapon madaniyatiga moslashtirilishi natijasida Suzuki Shosanning 「因果物語」 (“Karma haqida qissalar”, 1661) va Asai Ryoning 「御伽婢子」 (“Tumor qo‘g‘irchoq”, 1663) kabi hikoyalari dunyoviy lashtirildi. Aynan ushbu ikki asar keyinchalik “Oy va yomg‘ir haqida qissalar” to‘plamiga ahamiyatli darajada ta‘sir ko‘rsatdi¹.

Ueda “Qamishzordagi uy” va “Kibitsu ibodatxonasining qozoni” kabi hikoyalaridan ayrim diniy unsurlarni olib tashlash orqali sehrli-fantastik, didaktik asarlarning dunyoviy lashtirish jarayonini davom ettirdi.

Voqealari 1452 yilda bo‘lib o‘tadigan “Qamishzordagi uy” hikoyasida poytaxtda shoyi bilan savdo qilib, boyligini tiklash maqsadida sadoqatli xotinini tark etgan erkak haqida so‘z boradi. O‘sha yilning yozida urush boshlanganidan so‘ng uning qishlog‘idagi aholi turli joylarga qochishga majbur bo‘ladi. Ayol esa xavf-xatarga qaramay, erini kutish maqsadida uyda qoladi. Biroq, kuzda qaytib kelishni va’da qilgan erining qaytmayotganidan tushkunlikka tushib, umidlarini yo‘qota boshlaydi. Zo‘ravon qaroqchilarga va ochlikka qarshi kurashishga astoyidil harakat qilgan holda ayol tashlandiq qishloqda yolg‘iz qoladi. Uyga qaytayotgan er esa yo‘lda qaroqchilar tomonidan talon-taroj qilinadi, so‘ng og‘ir kasal bo‘lib qolganligi bois uyiga yetib bora olmaydi. Betobligida to‘xtashga majbur bo‘lgan qishloqda erkakka yaxshi munosabatda bo‘lishganligi tufayli u o‘sha yerda uzoq vaqt qolib ketadi. Yetti yil o‘tgach, xotiniga nima bo‘lganligini bilish maqsadida qishlog‘iga qaytishga qaror qiladi. Qishlog‘ining tashlandiq joyga aylanib, tanimaydigan holga kelganini ko‘rgan erkak faqat o‘z uyining yaxshi holatda saqlanib qolganligiga guvoh bo‘ladi. Uyida yillar davomida og‘ir ahvolda o‘ta urinib ketgan bo‘lsa-da, hali ham tirik va erini qaytishini kutayotgan xotinini topadi. Quvonchli va ko‘z yoshlarga to‘la uchrashuvdan so‘ng ular birga uyquga ketadilar. Erkak ertalab uyg‘onganida, uyining vayronaga aylanganligi, yotoqxonasidan qolgan narsa esa allaqachon vafot etgan xotinining qabri ekanligini ko‘radi va o‘sha onda kechagi tunda aslida ayolining arvohi bilan uchrashganini anglab yetadi. So‘ng, urushdan oldingi paytlardan beri ushbu qishloqda yashab kelayotgan yagona odam – qariyani izlab topganida, u erkakka ayolining o‘limi haqidagi voqeani so‘zlab beradi.

va ibodatxonda qo‘ng‘irog‘i haqida hikoya qilinadi. Dojoji No teatridda haqiqiy ulkan qo‘ng‘iroqdan teatr rekviziti sifatida foydalangan yagona pyesa hisoblanadi.

¹ D. Keene. *World Within Walls: Japanese Literature of the Pre-Modern Era, 1600-1867*. New York: Columbia University Press. 1999. – P.94.

Mazkur hikoyaning ildizlari xitoy namunalariga borib taqaladi. Xususan, hikoya Uedaning o‘tmishdoshi – Asai Ryoining “Tumor qo‘g‘irchoq” asariga asos bo‘lib xizmat qilgan XIV asrning 「剪燈新話」 (“Chiroq o‘chirilgandan keyingi yangi hikoyalari”, 1378) nomli xitoy hikoyalari to‘plamidagi 「爱卿传」 “Ayjin to‘g‘risidagi qissa”ning yaponchaga moslashtirilgan varianti hisoblanadi¹. Shu bilan birga, asarni yaratishda muallif “Qadimgi qissalar to‘plami”da uchraydigan o‘xshash hikoyadan ham ta’sirlangan.

Muallif o‘zining hikoyasida bosh qahramonni yanada aniqroq shaxsiy xususiyatlar bilan boyitdi, uning ushbu fojeadagi ma’suliyatini oshirdi va asl manbadan farqlab turuvchi bir qator boshqa o‘zgartirishlar qatorida qahramonlarning qayta tug‘ilish motivini olib tashladi.

“Kibitsu ibodatxonasining qozoni” hikoyasida mas’uliyatsiz erkak itoatkor xotinini yengiltak ayolga almashib, tashlab ketadi. Ayol o‘zining qasoskor ruhi bilan yengiltak raqibasini o‘ldiradi. So‘ng, ayol ham vafot etib, arvoj sifatida badbaxt erini ta‘qib qilishda davom etadi. Asarning qolgan qismida erkak qanday qilib xotinining arvoji bilan kurashishga harakat qilgani haqida hikoya qilinadi.

Mazkur hikoya ham “Chiroq o‘chganidan keyingi yangi hikoyalari” nomli ruhlar to‘g‘risidagi xitoycha hikoyalari to‘plami ta’sirida yaratilgan. Xususan, u xitoycha to‘plamidagi 「牡丹灯记」 (“Pion guli shamchirog‘i qissasi”) hikoyasining yaponchaga moslashtirilgan varianti sanaladi. Ueda o‘z asariga sevgi uchburchagi motivini qo‘shegan va “Qamishzordagi uy” hikoyasi singari, qayta talqin qilinayotgan qahramoniga yanada aniq shaxsiy xususiyatlarni bag‘ishlagan, uni hikoyaning fojiasi uchun bevosita javobgarga aylantirgan.

“Xrizantema bayramidagi ont” hikoyasi bo‘lsa, 「喻世明言」 (“Dunyoni yorituvchi aniq so‘zlar”, 1624) to‘plamidagi 「范巨卿雞黍死生交」 (“Fan Chu-tszin: Tovuq va tariqdan tayyorlangan taom, hayot va o‘limda do‘stlar”) nomli xitoy qissasi motivlarining yapon adabiyotiga moslashtirish natijasida yaratilgan Uedaning asari hisoblanadi.

Hikoyada jangchi xo‘jayinisining topshirig‘ini bajarib qaytib kelayotganida betob bo‘lib qolishi, unga g‘amxo‘rlik qilgan odam bilan yaqin do‘st tutinishi bilan bog‘liq voqealar hikoya qilinadi. Jangchi davo topganidan keyin, do‘stiga xrizantema bayrami kuni qaytib kelishini va‘da qilib, uyiga yo‘l oladi. Uyga yetib kelgach, xo‘jayini o‘ldirilib, marhumning o‘rnini uning raqibi egallaganligi va yangi xo‘jayinga barcha, shu jumladan, uning amakivachchasi ham qasamyod qilganligiga guvoh bo‘ladi. Yangi xo‘jayinga xizmat qilishni istamagan jangchi do‘stining oldiga qaytishga harakat qiladi. Biroq, amakivachchasi tomonidan asirga olinib, bu ishning uddasidan chiqa olmaydi. Va‘dasini buzish o‘rniga, u o‘z joniga qasd qilib, xrizantema bayrami kuni do‘stining oldida arvoj qiyofasida gavdalanadi. Shundan so‘ng, do‘sti jangchining uyiga borib, uning o‘limi uchun o‘ch olish maqsadida marhumning amakivachchasini topadi. Qotilni to‘satdan o‘ldirishdan oldin unga sadoqat haqida pand-nasihatlar o‘qiydi.

Hikoyani yaponchaga moslashtirishda Ueda xitoycha asardagi bosh qahramonni savdogardan jangchiga aylantirgan va qahramonning va‘dasini bajara olmaganining sababini va‘dani unutishdan asirga tushib qolish motiviga o‘zgartirgan.

¹ “Ayjin to‘g‘risidagi qissa”ning Asai Ryo tomonidan yaponchaga moslashtirilgan varianti haqida bat afsil qarang: D.Keene. World Within Walls: Japanese Literature of the Pre-Modern Era, 1600-1867. New York: Columbia University Press.1999. – P.267-268.

SHARQ MASJ'ALI

Ueda Akinari to‘plamning muqaddimasida badiiy adabiyotni yararishda o‘zining didaktik bo‘limgan yondashuviga ishora qilib, hikoya qilayotgan qissalarini hech kim haqiqat deb qabul qilmasligini bilishini ta’kidlaydi.

Adib g‘ayritabiyy hodisalarning dunyoviy izohlarini rad etib, bunday hodisalarni faqat yapon xalq e’tiqodi tushuntira oladi, deb hisobladi. Shunga qaramay, u hikoyalaridan barcha diniy unsurlarni olib tashlamadi¹. Ushbu fikrning tasdig‘i sifatida to‘plamning buddaviylik ta’limoti ta’sirida yuzaga kelgan setsuva² hikoyalari an’analariga to‘liq rioya qilinib yaratilgan “Ko‘k qalpoq” hikoyasini tilga olish o‘rinlidir.

“Ko‘k qalpoq” hikoyasida sayyoh bo‘lgan buddaviylik ruhoniysi bir qishloqqa tashrif buyuradi va u yerda mahalliy ruhoni yosh sevgilisining o‘limidan keyin aqldan ozganligi va uning jasadini yeb, odamxo‘r iblisga aylanganligidan boxabar bo‘ladi. Ruhoni qishloqni iblisning vahimasidan qutqarishga kirishadi. Ilohiy najot orqali qutqarish uchun iblisning boshiga ruhoniylar kiyib yuradigan ko‘k rangli qalpoqni kiydiradi. Shubhasiz, mazkur hikoya mazmunan yapon adabiyotidagi buddaviylik hikoyalari – setsuvalarni yodga soladi.

“Tushda namoyon bo‘lgan zog‘orabaliq” va “Kambag‘allik va boylik to‘g‘risida mulohazalar” hikoyalarida esa Ueda Akinari o‘zini buddaviylik hamda konfutsiylik ta’limotlariga xos qarashlarga ko‘r-ko‘rona ishonuvchi adiblardan farqlanadigan yozuvchi sifatida namoyon etadi,

“Tushda namoyon bo‘lgan zog‘orabaliq” hikoyasida baliqlarning rasmini chizishni xush ko‘radigan, ularning o‘ldirilishiga qarab tura olmaydigan, shu bois baliqchilarga tutilgan baliqnini qo‘yib yuborish uchun tez-tez pul to‘lab turadigan rohib haqida hikoya qilinadi. Kunlarning birida rasm chizayotib uxlab qolgan rohib daryoda baliqlar bilan o‘ynayotganligi haqidagi yorqin tushni ko‘radi. Uyg‘onganida tushida ko‘rgan baliqni chizib, unga “tushimda namoyon bo‘lgan zog‘orabaliq” deb nom beradi. Keyinchalik rohib kasal bo‘lib, xushini yo‘qotganida dengiz ilohi hayotligida juda ko‘p baliqlarni saqlab qolgani uchun mukofot sifatida rohibning zog‘orabaliq bo‘lib qayta tug‘ilish istagini bajo keltiradi. Biroq, baliq bo‘lib yashayotganida, do‘stilaridan biri uni tutib olib, yeb qo‘yadi. Rohib inson tanasiga qaytadi va uni balig‘ligida yeb qo‘yan do‘stiga qarshi chiqadi. Hikoyada buddaviylarning bu dunyoda va oxiratda tinchlik topish haqidagi ta’limoti kulgu ostiga olinadi.

“Kambag‘allik va boylik to‘g‘risida mulohazalar” hikoyasida esa xushmuomala, biroq pulga mukkasidan ketgan samuray xizmatkorining pulni yashirganini aniqlagani va uni mukofotlagani bayon qilinadi. Tunlarning birida uning oldida to‘plangan oltinlarining ruhi gavdalanadi. Ular boylik bilan bog‘liq axloqiy masalalarni muhokama qilishadi. Hikoyadagi voqealar 1595-yilga borib taqaladi va asar samuraylik kodeksining boylikka qarshi g‘oyalariga qaramay, pulga

¹ D. Keene. World Within Walls: Japanese Literature of the Pre-Modern Era, 1600-1867. New York: Columbia University Press. 1999. – P.94.

² Setsuva (tarj. “didaktik hikoya”) – afsona, ertak, rivoyat, masal, latifa kabilarni o‘zida mujassamlashtirgan o‘rta asr yapon nasri. VIII asrga yuzaga kelgan 「日本靈異記」 (“Ajoyibot-u g‘aroyibotlar haqida yapon qaydlari”) to‘plami uning ilk namunasi hisoblanadi. XII-XIII asrlarda yaratilgan 「今昔物語集」 (“Qadimgi qissalarining to‘plami”, XII), 「古今著聞集」 (“Qadimgi va hozirgi davrning mashhur qissalar to‘plami”, XIII), 「宇治拾遺物語」 (“Ujida to‘plangan qissalar” XIII) kabi to‘plamlar bilan rivojlangan (Setsuva haqida batafsil: Свиридов Г.Г. Японская средневековая проза сэцува. Наука. М., 1981. – С. 3-51).

SHARQ MASJH'ALI

mukkasidan ketganligi bilan mashhur bo‘lgan o‘sha davrning real samurayidan ilhomlangan holda yaratilgan.

Bu hikoyada “oltin ruhi” pulning tabiatan yaxshi ham, yomon ham emasligini, pulning foyda yoki zarari unga ega bo‘lgan odamning axloqiy xarakteriga bog‘liqligini, pul miqdori esa odamning axloqiga monand bo‘lishi shart emasligini ta’kidlaydi. Uedaning bunday fikrmulohazalari boylik o‘tmishdagi yaxshi xulq-atvori uchun odamga beriladigan mukofot ekanligi to‘g‘risidagi ushbu davrda keng tarqalgan buddaviylik va konfutsiylik ta’limotlariga xos qarashlarga zid kelar edi. Hikoya, Tokugava davrning senzura qonunlari tufayli ochiq ifodalanishi mumkin bo‘lmagan zamonaviy jamiyat va hukumatni yashirin tanqid qilish uchun tarixiy muhitdan ustalik bilan foydalanilib yaratilgan asarlardan biridir.

“Oy va yomg‘ir haqida qissalar” hikoyalar to‘plami Akinarining boshqa bir taxallus ostida yaratilgan asari bo‘lib, adib uni o‘zi yozganini hech qachon tan olmagan. Shunday bo‘lsa-da, uning mazkur asar muallifli ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. To‘plam adib shonshuhratining asosiy sababi bo‘lishiga qaramay, aftidan u kitobxonlar xotirasida o‘zining vaka she’rlari, milliy ta’limotini o‘rganishdagi faoliyati bilan saqlanib qolishni afzal ko‘rgan.

“Oy va yomg‘ir haqida qissalar” to‘plamidan keyin Akinari badiiy adabiyotni tark etmadı. 1793 yilda Akinari rafiqasi bilan birgalikda Osakadan Kioto shahriga ko‘chib o‘tdi va u yerda poytaxtning sharqi qismida joylashgan Chion-in ibodatxonasi yaqinida qashshoqlikda kun kechirdi. 1797 yilda rafiqasi vafot etganida so‘ng, bir necha oy o‘tib uzoq vaqtidan beri ko‘z nuri yomonlashib qolgan Akinari ko‘r bo‘lib qoladi. Biroq, keyinchalik adibning bir ko‘zi qisman ko‘rishni boshlaydi. 1808 va 1809 yillarda u o‘zining o‘nta hikoya va insholarini 「春雨物語」 (“Bahorgi yomg‘ir haqida qissalar”) nomi ostida to‘plab, nashr ettirdi. 1809 yil oltinchi oyning yigirma yettinchi kuni(G‘arb taqvimiga binoan 8 avgust)da yetmish olti yoshida vafot etguniga qadar Akinari do‘sstarining ko‘magiga tayangan holda Kioto shahrining goh u yer, goh bu yeriga ko‘chib o‘tib, yozuvchilik va ilm-fan bilan shug‘ullandi. Ueda Akinarining qabri Saifukuji buddaviylik ibodatxonasida joylashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. D. Keene. World Within Walls: Japanese Literature of the Pre-Modern Era, 1600-1867. New York: Columbia University Press. 1999. – 606 p.
2. D. Washburn. Ghostwriters and Literary Haunts. Subordinating Ethics to Art in Ugetsu Monogatari. Monumenta Nipponica. 45 (1). 1990. – pp. 39-74.
3. Reider, Noriko T. The Emergence of Kaidan-shū The Collection of Tales of the Strange and Mysterious in the Edo Period". Asian Folklore Studies. 60 (1). 2001. – pp. 79–99.
4. U. Akinari., A. H. Chambers (Translator). Tales of Moonlight and Rain. Columbia University Press New York. 2007. – 238 p.
5. Кин Д. Японская литература XVII-XIX столетий. Наука. Москва. 1978. – 441 с.
6. Свиридов Г.Г. Японская средневековая проза сэцува. Наука. М., 1981. – 234 с.
7. 上田秋成作; 長島弘明校注. 「雨月物語」 岩波書店